# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA SHAXMAT O‘RGATISH JARAYONIDA SHAXSIY SIFATLARINI AHAMIYATI VA MANTIQIY FIKIRLASH

**Xoliqov Umidjon Ko‘chqarovich,** Guliston davlat instituti “Pedagogika”kafedrasi katta o‘qituvchi,
e-mail: shax75.75@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada yosh avlodni ta’lim tarbiya olishda shaxmat o‘yini orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shaxsiy sifat va mantiqiy fikrlashlarini shakllantirishni ko‘p jihatdan o‘yinchining individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, xotira, diqqat va fikrlash kabi ruhiy jarayonlarni dolzarb ilmiy-amaliy masala sifati o‘rganilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxmatni o‘rganish salohiyatini to‘liq baholash uchun beshta yo‘nalish bo‘yicha shaxmat o‘yiniga qobiliyatini baholash metodikasi taklif etiladi: psixologik sifatlar, jismoniy sifatlar, aqliy sifatlar, ijodiy va ma’naviy-axloqiy fazilatlar.

**Kalit so‘zlar:** diqqatni jamlash, idrok,obro‘zli tafakkur, mantiqiy xotira, shaxmat, shaxsiy sifatlar, mantiqiy fikrlash, intelektual bilish darajasi, shaxmat uyini, qunt matonat, qatiyatlilik, bardoshlilik, o‘z o‘zini taxlil qilish, sabr toqatlilik.

# ЗНАЧЕНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ И ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ШАХМАТАМ

**Аннотация.** В статье формирование личностных качеств и логического мышления у учащихся начальных классов посредством игры в шахматы в воспитании подрастающего поколения во многом зависит от индивидуальных особенностей игрока, а также таких психических процессов, как память, внимание и мышление изучается как актуальная научно-практическая проблема.

Для полноценной оценки потенциала учащихся начальных классов к обучению шахматам предлагается методика оценки способности к игре в шахматы по 5 направлениям: психологический потенциал, физические качества, психические качества, творческие и духовно-нравственные качества.

**Ключевые слова:** концентрация, восприятие, логическое мышление, логическая память, шахматы, личностные качества, логическое мышление, интеллектуальный уровень, шахматный домик, настойчивость, настойчивость, выносливость, самоанализ, терпение, терпимость.

# SIGNIFICANCE OF PERSONAL QUALITIES AND LOGICAL THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE PROCESS OF CHESS TEACHING

**Abstract.** In the article, the formation of personal qualities and logical thinking in elementary school students through the game of chess in the education of the young generation depends to a large extent on the individual characteristics of the player, and mental processes such as memory, attention and thinking. studied as an actual scientific-practical issue.

In order to fully assess the potential of elementary school students to learn chess, a methodology for assessing the ability to play chess in 5 areas is proposed: psychological potential, physical qualities, mental qualities, creative and spiritual-moral. qualities.

**Keywords:** concentration, perception, logical thinking, logical memory, chess, personal qualities, logical thinking, intellectual level, chess house, perseverance, perseverance, endurance, self-analysis, patience tolerance

**Kirish.** O‘zbekistonda yorqin shaxmat yulduzlari, jahon chempionlari etishib chiqayotganligi bejiz emas. Yurtdoshlarimizning dunyo shaxmat olamini tez-tez larzaga solayotganini ham tasodif deb bo‘lmaydi. Zotan, Hindiston, Xitoy kabi davlatlar qatorida O‘zbekiston ham shaxmat vatani degan sharafli nomga asosli ravishda davogarlik qila oladi. Afrosiyobda yodgorligida fil suyagidan yasalgan shaxmat haykalchalarining to‘liq to‘plamiga duch kelingani, qadimiy Dalvarzintepa hududida Kushon imperiyasi davriga oid ikkita noyob shaxmat haykalchasi topilgani zaminimizda shaxmat o‘yini eramizdan oldingi purdardam mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Shaxmat bolaning mantiqiy fikirlash va shaxsiy sifatlarni shaklantirishga yordam beradigan pedagogik vositalardan biri deb hisoblasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ko‘plab psixolog va pedagog olimlarning fikriga ko‘ra, shaxmat bolaning shaxsiy sifatlarini shaklantirishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina ilg‘or mamlakatlarda shaxmat o‘yini maktab ta’limining boshlang‘ich bosqichiga kiritilgan va o‘quvchilarning ijodiy shaklantishi uchun eng faol vositalardan biri sifatida qo‘llanib kelmoqda. Ta’kidlash joizki, o‘quvchilarni shaxmat bilan shug‘ulanishi ularga boshqa o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida isbotlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni shaklantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3906-son va 2021-yil 14-yanvardagi “Shaxmatni yanada shaklantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4954-son [1] Qarorlarida «... umumiy o‘rta ta’lim maktablarida shaxmatga o‘qitishni bosqichma-bosqich qamrab olish, yuqori malakali murabbiy kadrlarni tayyorlash, shaxmat klublari va umumiy o‘rta ta’lim maktablari shaxmat sinflarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash”, “... tegishli 1000 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida 2, 3 va 4-sinf o‘quvchilarini “Jismoniy tarbiya” fani doirasida 18 soatlik reja asosida shaxmatga

o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi hamda ularga metodik yordam” ko‘rsatilishi nazarda tutilgan.

Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, shaxmat bilan doimiy shug‘ullanayotgan bolalar maktabda, ayniqsa, tabiiy fanlar bo‘yicha o‘zlashtirishi yuqori bo‘ladi, uning kelajakda maktabdagi yutuqlari yaxshi ko‘rsatkichlaridan biri, bo‘lib:

- mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shaklantirish, ko‘p o‘tishli o‘yinlar mantiq, xotira va tasavvurni rivojlantiradi. O‘yin davomida bolaga qat’iyatlilik, maqsadga intilish, diqqatli bo‘lish o‘qtiriladi;

- mantiqiy qaror qabul qilish shakllanadi. O‘yin tushunchasi kichik yoshdagi bolada o‘z vaqtida qaror qabul qilish va unga to‘liq javobgar bo‘lish hamda maqsadga qarab diqqatni tez jamlay olish va unga erishish yo‘llarini topa olish kabi shaxsiy sifatlarni metodik jihatdan shakllantiradi;

- ular muvaffaqiyatsizliklarga oqilona yondashish shaxsiy sifatlarini shakllantiradi. Bu nafaqat to‘g‘ri xulosalar bilan xatolar ustida puxta ishlash, balki kelajakda ularni maqsadga qarab qo‘llash shaxsiy sifatlarni ham anglatadi. Bularning barchasi aql-zakovatni va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek ijodkorlikni kuchaytiradi;

- strategik va tizimli fikrlash chegaralarini kengaytirish. Shaxmat vaziyatni tahlil qilish va xayolda yutuqli mantiqiy zanjirlarni ishlab chiqishni o‘rgatadi [12].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda boshlang‘ich ta’limning turli jihatlari B.Abdullaeva, B.Adizov, G.Akramova, G.Boymurodova, N.Dilova, G.Najmiddinova, X.Nazarova, R.Nurjanova, R.Safarova, N.Tosheva, Z.Xolmatova, G.Hasanova, O.Karxonova va Sh.Toshpulatovalar tomonidan faol qo‘llanilgan. Ta’limda shaxmat o‘yinlarini tatbiq etishda M.Muxiddinov, A.Mazmudov, M.Xaylaev, R.Qosimjonov, Eson Ali, H.Turdialiyev, B.Xolmirzaev va boshqalarning shaxmat nazariyasi va amaliyotiga oid izdanishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin [8].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish muammolari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) olimlari V.Averin, N.Belitskaya, V.Belich, V.Bibler, V.Gagay, B.Geydman, E.Gorlova, Dayana Xalperi, N.Dik, A.Zak, M.Kalugin, N.Novotortseva, I.Krotov, G.Levitas, N.Leonova, L.Lixtarnikov, A.Markova, M.Matyuxina, S.Spiridonova, M.Mauerman, G.Tsukerman O.Tarasova. E.Revin, V.Knyazeva Ya.Gabbazova, G.Nesis, G.Alekseev, G.Kasparov, A.3arrash, A.Kotov, N. Krogius, T. Petrosyan. [10] va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Shaxmat ta’limi jarayonida o‘quvchi shaxsini shaklantirishning pedagogik-psixalogik jihatlari ishlab chiqilgan.

Xorij olimlaridan E.Fromm, M.Mauerman, A.Maslou, Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templ, R. Zuzoueu, Robert Fergyuson, Florian Vaulon. A. Bisno, Ernst Bensh, Uve Bensh, Dj. Bul A.Inizian, J.Kalmi, S.Frene, P.Kergomar, J.Piaje, S.Bendjamin. [4] kabilar tomonidan kichik yoshdagi o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, shaxmat o‘qitish jarayonini takomillashtirish zarurati u yoki bu jihatdan o‘rganilgan.

Ko‘plab mashhur shaxmatchilar shaxmat bilan ilk bor kichik yoshida tanishgan, xususan, X.Kapablanka, A.Karpov, P.Keres, S.Reshevskiy, M.Eyve qadimgi o‘yin

bilan ilk bor 4 yoshida, N.Gaprindashvili, G.Kasparov 5 yoshida, V.Smislov, B.Spasskiy, R.Fisher 6 yoshida, A.Alyoxin, M.Tal esa 7 yoshida o‘ynashga kirishgan [7]. Albatta, shaxmat o‘yiniga jalb qilingan bolalarning barchasi ham chempion bo‘lavermaydi. Ammo, shaxmatning barkamol shaxsni shakllantirishga qo‘shgan hissasi juda ham katta ekanligini ta’kidlash joiz.

Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari, shuningdek, shaxmatni o‘qitish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, shaxmat mashg‘ulotlarini boshlash uchun 5-10 yosh oralig‘i eng qulay davr hisoblanadi, chunki bu davrdan boshlab bolalarda mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlari shakllana boshlaydi. Rivojlanishning bu bosqichida shaxmat ideal model hisoblanadi. Boshlang‘ich maktab yoshida bola aql-zakovatining jadal shaklantirish nafaqat inson ruhiyatida, balki umuman hayotida ham katta rol o‘ynaydi. Agar shaxmat hammaga o‘rgatilsa, shaxmat o‘yinini o‘ynashni davom etish yoki etmasligidan qat’iy nazar, barcha bolalarga aynan nimani berishini tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan “tarbiyaviy” ko‘rsatma etakchi bo‘lib boradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Eksperimental tarzda shaxmatni faol o‘ynayotgan bolalarda intelektual reaktsiya tezligi o‘yinni o‘ynamaydigan bolalarga nisbatan 40% yuqori ekanligi aniqlandi. Bunda har bir bolaning aql xususiyatlari bitta ma’lumot bilan doimiy qotib qolgan bo‘lmaydi, balki muayyan ta’lim sharoitida progressiv o‘zgarishlarga uchrashini anglatadi. Bunday sharoitni ta’minlashda muhim o‘rin shaxmatga tegishli ekanligini ukitirib o‘tish mumkin.

Shaxmat bolaning har tomonlama rivojlanish vositasidir. Bu umumiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan o‘yin xarakteridagi umuminsoniy tarbiyadir. Shaxmat tashqi va ichki nutqning shaklantirishga, kombinator va mantiqiy fikrlash, iroda, hayotiy faollik, tanqidiylik, o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash, mustaqil ta’lim olish qobiliyatiga ta’sir qiladi.

Maktab ta’limining muammoli tomoni doimo bo‘lib kelgan va qolaversa, olingan bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini bermaydi. Shaxmat bolalar uchun amaliy jihatdan rivojlangan va uzviy nazariyaga ega bo‘lgan qiziqarli amaliy faoliyat turi hisoblanadi.

Shu sababli ham, barcha bolalarga shaxmatni o‘rgatish kerak va mutaxassislarning fikriga ko‘ra, buni amalga oshirishning eng qulay vaqti boshlang‘ich maktabda yoki hatto maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Shaxmatni yoqtiradigan o‘quvchilarga esa o‘qishni o‘rta maktabda davom ettirish imkoniyati berilishi kerak.

Ko‘pincha bolaning kelajakda shaxmat grossmeysteri bo‘lish ichki salohiyati (iste’dodi) mavjud bo‘lishi mumkin. Lekin uning yoshi yoki boshqa sabablarga ko‘ra, u hali shaxmatga jalb qilinmaydi. Bunday hollarda uning yashirin iste’dodini hisobga olmasdan, faqat tashqi omillar asosida qaror qabul qilib bo‘lmaydi. Afsuski, shaxmat didaktikasida tabiatning “yashirin" iste’dodini ko‘rish, shaxmatda bolaning rivojlanish ko‘rsatgichini aniqlash va baholash imkonini beruvchi ob’ektiv vositalar yo‘q.

T. Ognevaning fikricha, “Shaxmat orqali bolaning rivojlanish sifati va tezligini oshirish uchun bolaning bu o‘yinni o‘rganishdan oldin shaxmat o‘yiniga qobiliyatini

bilish muhimdir”. U har bir bolaning haqiqiy rivojlanish sohasini ko‘rishga imkon beradigan psixologik metodlar tizimini ishlab chikdi. Bu o‘quv jarayonida bolaning imkoniyatiga qarab yuklamani aniqlash imkonini beradi. Natijada bolaning mantiqiy fikrlash prognozi oshib boradi [14].

Shaxmat o‘ynashda mantiqiy fikrlashni holisona baholash uchun shaxmatchilarga qo‘yiladigan talablarni, ya’ni shaxmatchi qanday psixologik, fiziologik, aqliy, ijodiy, axloqiy sifatlarga ega bo‘lishi lozimligini bilish kerak. Shunday qilib, shaxmat o‘yini uchun bolaning salohiyatini har tomonlama baholash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunda turli xil diagnostik vositalar va usullardan foydalanish mumkin. Shaxmatni o‘rganish va shaxsni shakllantirishni tashhislashning bu usullari butun o‘quv materialini qamrab holda rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillariga asoslanishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga shaxmat o‘yinida mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarni aniqlash metodikasini ishlab chiqish murakkab bo‘lib, u maxsus psixologik-pedagogik diagnostik usullarni talab etadi. Bizningcha, bunday usullar shaxmat o‘yinining barcha tarkibiy qismlarini tizimli baholashga imkon beradi. Salohiyatni baholashga har tomonlama yondashish shaxmat olamining eng yaxshi vakillari ega bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni hisobga olgan holda va ularning yuqori darajadagi muvaffaqiyati uchun shart-sharoitlar nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxmat o‘ynash mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarni aniqlash bo‘yicha taklif etilayotgan majmuaviy metodikasi iste’dodli shaxmachilarga xos bo‘lgan psixologik, jismoniy, aqliy, ijodiy va ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Boshqa usullardan farqli ravishda taklif etilayotgan empirik ma’lumotlarga asoslangan murakkab metodika ilmiy va ixtisoslashtirilgan adabiyotlar tahlili, psixologik - pedagogik tajribalar, shaxmat darslarini o‘qitish tajribasi hamda dunyoning etakchi shaxmatchilarining tajribalari asosida ishlab chiqiladi. Tadqiqotning jarayonida iste’dodli shaxmatchi uchun belgilangan talablarni 5 ta blok guruhga ajratdik: psixologik, jismoniy, intellektual, ijodiy va ma’naviy-axloqiy. Tabiiyki, ularning barchasi o‘zaro bog‘liq. Ushbu guruhlash shartli bo‘lib, bolani shaxmat yo‘lining boshida kerakli rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu farqlanish ana shu sifatlarning qaysi biri tug‘ma deb hisoblanishini hayot davomida shaklantirish mumkinligi hamda ularning qaysi biri faqat shaxmat o‘yiniga taalluqli ekanligini aniqlashdan iborat [11].

**Shaxmatchi shaxsiyatiga qo‘yiladigan talablar:**

**Psixologik -** xotira, diqqat, refleksiya, kontsentratsiya, o‘z-o‘zini anglash, stressga qarshilik, vazminlik, o‘zini o‘zi, o‘ziga ishonch, qunt bilan ishlashi, mobillik, hissiyotlarni nazorat qilish, diqqatini ko‘chira olish va boshqalar.

**Intellektual**-umumilmiy bilimlar, shaxmat nazariyasi, asosiyni ajratib olish ko‘nikmasi, ma’lumotni tahlil qilishi, raqibning psixologiyasini o‘rganish ko‘nikmasi, tafakkur faolligi va boshqalar.

**Kreativ**-muammoni ko‘ra olishi, tafakkurining tizimliligi mantiqiyligi, tashabbuskorlik, tafakkurining divergentligi va boshq.

**Jismoniy**- iroda sifatlari, mehnatkashliki, o‘zini o‘zi tashkil qila olish, intizom, jangchiga xos sifatlar, o‘zini o‘zi nazorat qila olish, charchog‘ini nazorat qilishi va boshqalar.

**Axloqiy**-.motivatsiya, muloqot madaniyati, ahloqiy qadriyatlar yordam ko‘rsatishga tayyor ekanligi etik me’yorlar va boshqalar [8].

Belgilangan talablar va ularning tarkibiy qismlari asosida bolaning shaxsiy sifatlari mosligini aniqlash uchun diagnostik vositalardan foydalanish mumkin.

**Tashhis natijalarini tahlil va talqin qilish.** Yuqorida qayd etilganidek, shaxmatni o‘rganish mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarni shaklantirishni har tomonlama baholash o‘quvchi shaxsining psixologik, aqliy, ijodiy, jismoniy, ma’naviy va axloqiy sifatlarini aniqlashdan iborat. Quyida sinaluvchi shaxs xususiyatlari va tashhis vositalari hamda rivojlanish darajasi ko‘rsatilgan jadval keltirilgan. Tavsiya etilgan vositalar (testlar, shaxmat o‘yini, masalalar echish) asosida sonli ko‘rsatkichlar aniqlanadi va jadvalga kiritiladi.

2-4 sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlari shaklantirish takomillashtirilib o‘qitish smaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari (foizda) (tajriba sinfi-960 nafar, nazorat sinfi-790 nafar o‘quvchi)

| № | M e z o n l a r | Sinflar | O‘zlashtirish darajalari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Tajriba boshida | | | Tajriba yakunida | | |
| | | | yuqori | o‘rta | past | yuqori | o‘rta | past |
| 1 | Mantiqiy xotira | Tajriba | 260 | 300 | 400 | 480 | 320 | 160 |
| | | Nazorat | 230 | 245 | 315 | 195 | 275 | 320 |
| 2 | Diqqatni jamlash | Tajriba | 285 | 315 | 360 | 460 | 325 | 175 |
| | | Nazorat | 145 | 270 | 375 | 285 | 270 | 235 |
| 3 | Obraz tafakkur darajasi | Tajriba | 295 | 290 | 375 | 470 | 325 | 165 |
| | | Nazorat | 160 | 275 | 355 | 190 | 270 | 330 |
| 4 | Intelektual bilish darajasi | Tajriba | 260 | 345 | 355 | 475 | 330 | 155 |
| | | Nazorat | 200 | 265 | 325 | 275 | 260 | 255 |
| 5 | Kraektiv fikrlash | Tajriba | 310 | 335 | 315 | 575 | 230 | 155 |
| | | Nazorat | 240 | 230 | 320 | 200 | 350 | 240 |
| 6 | Qunt- matonat | Tajriba | 300 | 255 | 405 | 490 | 300 | 170 |
| | | Nazorat | 220 | 210 | 360 | 290 | 150 | 350 |
| 7 | Qatiyatlilik | Tajriba | 245 | 220 | 495 | 495 | 305 | 160 |
| | | Nazorat | 290 | 365 | 135 | 190 | 250 | 350 |
| 8 | Bardoshlilik | Tajriba | 310 | 290 | 360 | 465 | 325 | 170 |
| | | Nazorat | 165 | 285 | 340 | 280 | 290 | 220 |
| 9 | O‘zini o‘zi taxlil qilish | Tajriba | 225 | 355 | 380 | 480 | 345 | 135 |
| | | Nazorat | 160 | 275 | 355 | 175 | 285 | 330 |
| 10 | Sabr-toqatlilik | Tajriba | 210 | 295 | 455 | 510 | 295 | 155 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Nazorat | 290 | 180 | 320 | 220 | 300 | 270 |
| J a m i: | Tajriba | 2700 | 3000 | 3900 | 4900 | 3100 | 1600 |
| | Nazorat | 2100 | 2600 | 3200 | 2300 | 2700 | 2900 |
| O‘ r t a ch a s i: | Tajriba | 270 | 300 | 390 | 490 | 310 | 160 |
| | Nazorat | 210 | 260 | 320 | 230 | 270 | 290 |

2-4 sinf o‘quvchilarida mantiqiy va shaxsif sifatlari shaklantirishni takomillashtirib o‘qitish smaradorligini aniqlash yuzasidan tajribadan oldingi o‘zlashtirish natijalari

| **Sinflar** | **2-4 sinf o‘quvchilari soni** | **O‘zlashtirish darajalari** | | |
|---|---|---|---|---|
| | | **Yuqori** | **O‘rta** | **Past** |
| Tajriba sinfi | 960 | 270 | 300 | 390 |
| Nazorat sinfi | 790 | 210 | 260 | 320 |

Tajriba sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va 2-4 sinf o‘quvchilari sonini mos ravishda $X_in_i$ lar va shu kabi nazorat sinfidagini esa $Y_jm_j$ lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz, shuningdek, yuqori ko‘rsatkichni 3 ball bilan, o‘rta ko‘rsatkichni esa 2 ball bilan va past ko‘rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz.


Tajriba sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 270; & 300; & 390 \end{cases} \qquad n = \sum_{i=1}^{3} n_i = 960$$

Nazorat sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_i & 3; & 2; & 1; \\ m_j & 210; & 260; & 320; \end{cases} \qquad m = \sum_{j=1}^{3} m_j = 790$$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko‘rinishni oladi:




**1-*rasm*. Tajriba boshida.**

2-4 sinf o‘quvchilarida mantiqiy va shaxsif sifatlari shaklantirishni takomillashtirib o‘qitish smaradorligini aniqlash yuzasidan tajribadan keyingi o‘zlashtirish natijalari.

| Sinflar | 2-4 sinf | O‘zlashtirish darajalari |
|---|---|---|

| | o‘quvchilari soni | Yuqori | O‘rta | Past |
|---|---|---|---|---|
| Tajriba sinfi | 960 | 490 | 310 | 160 |
| Nazorat sinfi | 790 | 230 | 270 | 290 |

Tajriba sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va 2-4 sinf o‘quvchilari soni bo‘yicha mos ravishda yuqoridagi kabi belgilashlar kiritamiz.


Tajriba sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 3; \quad 2; \quad 1; \\ n_i & 490; \quad 310; \quad 160; \end{cases} \qquad n = \sum_{i=1}^{3} n_i = 960$$

Nazorat sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_i & 3; \quad 2; \quad 1; \\ m_j & 230; \quad 270; \quad 290; \end{cases} \qquad m = \sum_{j=1}^{3} m_j = 790$$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko‘rinishni oladi:




**2-*rasm*. Tajriba yakunida.**

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatgichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma’lum $\overline{X}=2{,}34$; $\overline{Y}=1{,}94$ $\Delta_x = 0{,}05$; $\Delta_y = 0{,}1$ ga teng.

Bundan sifat ko‘rsatgichlari:

$$K_{усб} = \frac{(\overline{X} - \Delta_x)}{(\overline{Y} + \Delta_y)} = \frac{2{,}34 - 0{,}05}{1{,}92 + 0{,}1} = \frac{2{,}29}{1{,}93} = 1{,}18 > 1;$$

$$K_{бдб} = (\overline{X} - \Delta_x) - (\overline{Y} - \Delta_y) = (2{,}34 - 0{,}05) - (1{,}92 - 0{,}1) = 2{,}29 - 1{,}91 = 0{,}38 > 0;$$

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajriba sinfidagi o‘zlashtirish nazorat sinfidagi o‘zlashtirishdan yuqori ekan.

Demak, 2-4 sinf o‘quvchilarida mantiqiy va shaxsif sifatlari shaklantirishni o‘qitish smaradorligini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan ma’lum bo‘ldi.

**Xulosa va takliflar.** Bolalarni shaxmat o‘ynashga o‘rgatish jarayoni ularda mantiqiy va shaxsiy sifatlari shaklantirishni ko‘p jihatdan yordam beradi. Bu shaxmat o‘ynovchi o‘quvchining individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, bunda uning xotira, diqqat va fikrlash kabi ruhiy jarayonlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Shaxmat o‘yini maktab o‘quvchilarining ko‘rgazmali va obrazli tafakkurini rivojlantiradi, mantiqiy tafakkurning shakllantishga ko‘maklashadi, qat’iyatli, diqqatli bo‘lishni, fikrlashni va maqsadga intilishni o‘stiradi. Bu o‘yinni o‘rgangan bola o‘z-o‘zini tanqid qiladi, mantiqiy fikrlashga, ustaqil qaror qabul qilishga, oxirigacha kurashishga, muvaffaqiyatsizliklardan tushkunlikka tushmaslikka odatlantiradi.

Shaxmat faoliyati orqali o‘quv jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini shakllantirish yuzasidan qo‘ydagi taviyalari ishlab chiqildi .

1. O‘quvchilarni mantiqiy fikrash va izchil to‘g‘ri tartiblarga o‘rgatish: taqqoslash, analiz, sintez, umumlashtirish, tasniflash, o‘xshatishlarni qiyoslash va boshqalar.
2. O‘quvchilarning mantiqiy ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirish.
3. O‘quvchilarni o‘z-o‘zini mantiqiy xatolarini aniqlash va tanqidiy munosabatga o‘rgatish.
4. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi darajasini diagnostika qilish.
5. O‘quvchilar faoliyatini ularning mantiqiy tafakkurini shaklantirishni motivatsiyaviy o‘rganish.
6. Shaxmatni o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan mantiqiy vazifalar tizimini o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqish.
7. Shaxmat faoliyatini tashkil etish strukturasining mantiqiy tafakkurni shaklantirish vazifalariga optimal mosligini hisobga olgan holda dars materialini izchil tuzish.
8. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini shaklantirish darajasini boshqarish va korrektsiyalash lozim bo‘ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada shaklantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PQ-4954-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-avgustdagi “Shaxmatni yanada ommalashtirish va shaklantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-347-son qarori.
3. Анишева В. Е. Методические особенности Индивидуализированного начального обучения шахматам детей младшего школьного возраста. Дисс. канд. пед. наук. РГАФК. - М., 2002. - 163 с.
4. Барташников А. Психологические особенности и формирование оперативной памяти у школьников и шахматистов. Дисс. канд. псих. наук. - М., 1988. - 211 с.

5. Вершинин М. А. Теория проектирования системы формирования логического мышления шахматистов: дис.доктора педагогических наук, Волгогр. гос. акад. физ. культуры. – Волгоград, 2005. -506 с.

6. Габбазова А. Я. Интеллектуальное развитие детей младшего актуальное развитие детей младшего школьного возраста в процессе обучения шахматной игре : Дисс. канд. псих. наук. 19.00.07: М., 2005 151 с. РГБ ОД, 61:05-19/671.

7. Гришин В. Г. Дети играют в шахматы: Кн. для воспитателей дет. сада и родителей. 2-е изд., дораб. -М.: Просвещение: АО “Учеб. лит.”, 1995. -159 с.

8. Джураев Р. Х., Махмудов А. Х., Камилова А. Б. Шахматы – как эффективное средство непрерывного формирования и развития творческих способностей детей. -Т.: Узлуксиз таълим, 2019. -№3. -58-64 с.

9. Зак А. Путешествие в Сообразилию или как помочь ребенку стать смышленым. НПО «Перспектива», - М., 1993.

10. Князева В. В. Структура и содержание учебного предмета шахматы в системе общеобразовательной школы России. - Дисс. на соиск. д.п.н., М.: 2000. -410 с.

11. У. Холиқов. Бошланғич синф ўқувчиларда шахмат ўргатиш орқали мантиқий фикрлаш ва шахсий сифатларини баҳолашнинг иннавоцион усуллари O‘rta Osiyo ta’lim va innovatsiyalar jurnali-1 (2), 28-37 с.

12. U. K. Khalikov. PEDAGOGICAL VALUE OF DEVELOPING PLAYING CHESS AMONG PRIMARY SCHOOLCHILDREN. Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), 17-23.

13. Тарасова О. В. Педагогические условия формирования логической культуры младших школьников средствами шахматной деятельности: Дис . канд. пед. наук. - Казань, 2005. - 209 с.

14. Огнева Т. А. Диагностика уровня дифференцированности зрительного восприятия у первоклассников/«Возможностипрактической психологии в образовании. Из опыта работы психологовУЦ «перспектива». Вып. 3. Ред. Пилипко Н.В. М.: УЦ «Перспектива», 2001. С. 78-84.